

**O'ZBEKISTONDA BOLALAR YOSHLAR TA'MINOTI, HIMOYASIDA
IJTIMOIY ISH OLIB BORISHNING XUSUSIYATLARI VA UNING
SAMARADORLIK DARAJASI**

*Normamatova Ruhshona
Guliston davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasи
“Ijtimoiy ish” yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya. "O'zbekistonda bolalar va yoshlar ta'minoti himoyasida ijtimoiy ish olib borishning xususiyatlari va samaradorlik darajasi" haqidagi maqola ijtimoiy himoya tizimining dolzarb masalalarini yoritadi. Maqolada davlat va nodavlat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari hamkorligida amalga oshirilayotgan islohotlar, bolalar va yoshlar uchun ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy ish xodimlarining roli va ularning bolalar ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati ko'rsatiladi. Maqola, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqola bolalar va yoshlar ta'minoti himoyasida ijtimoiy ish olib borishning muhimligini va uning samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatadi.

Tayanch iboralar: Ijtimoiy himoya tizimi, bolalar va yoshlar ta'minoti, ijtimoiy ish xodimlari, Davlat va nodavlat tashkilotlar, islohotlar va dasturlar, yoshlar daftari, yoshlar dasturlari.

Абстрактный. В статье «Особенности и уровень эффективности социальной работы по защите детей и молодежи в Узбекистане» освещены актуальные вопросы системы социальной защиты. В статье анализируется эффективность программ социальной защиты детей и молодежи, реформ, реализуемых в сотрудничестве с государственными и негосударственными организациями, научно-исследовательскими и образовательными учреждениями. Также показана роль социальных работников и их значение в удовлетворении потребностей детей. В статье также содержатся рекомендации по дальнейшему совершенствованию системы социальной защиты. В данной статье показано значение социальной работы в защите детей и молодежи и пути повышения ее эффективности.

Основные фразы: Система социальной защиты, поддержка детей и молодежи, социальные работники, Государственные и негосударственные организации, реформы и программы, молодежный регистр, молодежные программы.

Abstract. The article "Features and level of effectiveness of social work in the protection of children and youth in Uzbekistan" covers current issues of the social

protection system. The article analyzes the reforms being implemented in cooperation with state and non-state organizations, research and educational institutions, the effectiveness of social protection programs for children and youth. It also shows the role of social workers and their importance in meeting the needs of children. The article also contains recommendations for further improving the social protection system. This article shows the importance of social work in the protection of children and youth and ways to increase its effectiveness.

Key words: Social protection system, children and youth, social workers, state and non-state organizations, reforms and programs, youth notebook, youth programs.

Kirish. O‘zbekistonda bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi mamlakatning ijtimoiy siyosatida muhim o‘rin tutadi. Aholining qariyb 60 foizini tashkil etuvchi bolalar va yoshlar uchun davlat tomonidan ko‘plab dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi bolalar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Davlat byudjetining taxminan 60 foizi ijtimoiy xarajatlarga sarflanadi, bu esa xalqaro amaliyotga muvofiq yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi. O‘zbekistonda bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish uchun ko‘plab islohotlar va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qisim. UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bolalar va yoshlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun UNICEF va Jahon banki tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, eng kam ta’minlangan oilalardagi bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga borish imkoniyati o’ziga to’q oilalardagi bolalarga nisbatan 1,4 barobar kamdir.

Bu esa ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Moliyaviy qiyinchiliklar sababli, biz bolalarni sifatli ta’lim olish imkoniyatidan mahrum qilishimiz mumkin. O‘zbekistonda UNICEF va Microsoft hamkorligida yaratilgan “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasi bolalarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini beradi. Bu platforma orqali bolalar va ularning ota-onalari turli o‘quv materiallari va resurslardan foydalanishlari mumkin. Agar biz bu kabi platfoema soni v sifatni oshiradigan bo‘lsak va muammolar bartaraf etadigan bo‘lsak, jamiyatimizda olim va olima farzadlar sonini oshishiga hissa qo‘sghan bo‘lamiz.

Bundan tashqari, bolalar va yoshlar uchun maxsus dasturlar: “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari” kabi maxsus dasturlar orqali yoshlarning hayotiy muammolarini hal qilish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratilmoqda. Masalan, 2021-yilda 430 ming nafar yigit-qizning muammolarini hal qilish uchun 300 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Bu ko‘rsatkichlar yildan yilga oshib bormoqda. “Yoshlar dasturlari” doirasida tadbirkorlik loyihalari uchun imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan yoshlarga dehqonchilik bilan shug’ullanishilari uchun yer maydonlari ajratiladi. “Yoshlar daftari” esa ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va psixologik qo‘llab-

quvvatlashga muhtoj yoshlarning muammolarini aniqlash va hal qilish uchun yaratilgan ma'lumotlar bazasidir.¹ Yoshlar daftari orqali ishsiz yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar, iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar va psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar ro'yxatga olinadi. Yoshlar daftari orqali yoshlar tadbirkorlik, kasb-hunar, haydovchilik va kasbga qayta tayyorlov kurslarida o'qitiladi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun mikrokreditlar va subsidiyalar ajratiladi.

Bularning barchasi biz yoshlarning jamiyatda o'z o'rinnizni topishimiz uchun amalga oshirilayotgan ishlardir. Shuningdek, ijtimoiy ish xodimlarining roli va ularning bolalar ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy ish xodimlari jamiyatdagi zaif qatlamlarga, jumladan bolalarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarning ehtiyojlarini qondirish va ularning huquqlarini himoya qilish uchun turli xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu xizmatlar orasida bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilash, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini ta'minlash va oilaviy muhitni yaxshilash kiradi.

O'zbekistonda ijtimoiy ish xodimlari bolalar va ularning oilalari bilan ishlashda kasbiy mahoratlarini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonda bolalar va oilalar farovonligini ta'minlashda ijtimoiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha forumlar o'tkazilib, strategik va barqaror yondashuvlar muhokama qilinmoqda. Ushbu tadbirlar orqali ijtimoiy xizmat xodimlarini o'qitish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan bolalarga xizmat ko'rsatish borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Aholining har 100 ming nafariga 13 nafar ijtimoiy ish xodimi to'g'ri keladi, bolalarni himoya qilish funksiyalarini bajaruvchi ijtimoiy ish xodimlari esa har 100 ming nafar bolaga 3 nafarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar ijtimoiy ish xodimlariga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Mavjud dasturlar va islohotlar natijasida bolalar orasidagi kam ta'minlanganlik darajasi 8 foizga kamaydi. Shuningdek, 2034-yilga borib 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni nafaqalar bilan qamrab olish miqyosini 75 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar bolalar va yoshlarning farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, yoshlarni ish bilan ta'minlanishi va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun xalqaro dasturlar ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Aflatoun xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan AflaYouth dasturi yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlar va tadbirkorlikka jalb qilishga qaratilgan. AflaYouth dasturi 16 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalarning bandlik va daromad olish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

¹ <https://yoshlardaftari.uz>

Dastur uchta asosiy modulni o‘z ichiga oladi:

- 1.Ijtimoiy va moliyaviy ko‘nikmalarini rivojlantirish
2. Bandlik ko‘nikmalarini
3. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.²

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunlar qatoriga 2021 yilda qabul qilingan PF-6260-sonli farmonni kiritishimiz mumkun³. Bu farmon yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o‘rgatish va tadbirkorlikka keng jalb etishni o‘z ichiga oladi. Yana bir so‘ngi kunlardagi bolalar va yoshlarga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-sonli farmoni bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan⁴. Ushbu farmonning asosiy maqsadi yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarni muqobil joylashtirish shakllarini takomillashtirish va ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlashdir. Farmon quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi: Bolaning oila muhitida tarbiya topishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini yo‘lga qo‘yish.

Oilani qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olish. Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish. Bolalarni muqobil shaklda joylashtirish, jumladan, vasiylik va homiylikni belgilash, farzandlikka olish, tutingan (foster) oilaga berish kabi shakllarni rivojlantirish. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab mehribonlik uylari va bolalar uylariga kam ta’minlangan oilalarning farzandlarini vaqtinchalik qabul qilish tartibi bekor qilinadi. Bu farmon bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning eng ustun manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamdir.

Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

Institutsional tizim yaratish: Aholini ijtimoiy himoya bilan qamrab olishni kuchaytirish va barcha uchun teng imkoniyatlarni taqdim etish.

Yordam jarayonini soddalashtirish: Yordam ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashirish va tezlashtirish orqali samaradorlikni oshirish.

Oilalarni qo‘llab-quvvatlash: Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish va kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish.

Bolalarni himoya qilish: Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilish va ularning huquqlarini himoya qilish

² . <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/ijtimoiy-ishlarni-kuchaytirish>

³ <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-7228799>

tizimini takomillashtirish. Bolalar va yoshlar ta'minoti himoyasida ijtimoiy ish olib borish juda muhim, chunki bu yosh avlodning sog'lom rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

**Ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llarni ko'rib
chiqish mumkin:**

Malakali kadrlar tayyorlash: Ijtimoiy ishchilarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish va ularning malakasini doimiy ravishda oshirish.

Erta aralashuv: Muammolarni erta aniqlash va ularga tezkor javob berish orqali bolalar va yoshlarning salbiy ta'sirlardan himoya qilish.

Hamkorlikni kuchaytirish: Ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlikda ishlash.

Oilaviy qo'llab-quvvatlash: Oilalarga psixologik va moddiy yordam ko'rsatish orqali bolalar va yoshlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash.

Jamiyatni jalb qilish: Jamiyat a'zolarini ijtimoiy himoya jarayonlariga jalb qilish va ularning xabardorligini oshirish. Bu choralar bolalar va yoshlar ta'minoti himoyasida ijtimoiy ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Bugungi bolalar va yoshlar 20 yildan so'ng, O'zbekiston tarixidagi eng katta ishchi kuchiga aylanadi. Bugun yosh avlodning salohiyatini oshirishga (ta'lim, malaka, sog'liqni saqlash) kiritilayotgan investitsiya ertaga meva bera boshlaydi, ya'ni aynan shu bolalar va yoshlar O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Hukumatimiz tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirishga davlatning ustuvor yo'nalishi sifatida eng yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish uchun ko'plab islohotlar va dasturlar amalga oshirilmoqda. Davlat va nodavlat tashkilotlari, xalqaro ekspertlar hamkorlikda ishlamoqda. Ushbu sa'y-harakatlar orqali bolalar va yoshlarning farovonligi ta'minlanmoqda va ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O'zbekistonda bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi
- 2.Yoshlar va ijtimoiy himoya: O'zbekiston tajribasi
- 3.<https://yoshlardaftari.uz>
- 4.<https://lex.uz/uz/docs/-7228799>
5. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/>